

VII. ISTE'MOL BOZORI

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiyligi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidandir.

2024-yil 1-iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 650 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 109 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 541 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi, mld. so‘m (2024-yil yanvar-iyun oylari)

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 10 682,6 mld. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 108,6 % ga o‘sdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 878,9 mld. so‘mni (o‘sish sur’ati 125,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 9 803,6 mld. so‘mni (o‘sish sur’ati 107,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 733,7 mld. so‘mni (o‘sish sur’ati 117,7 %) tashkil etdi.

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining hajmi va o‘sish sur’atlari


	Jami mld. so‘m	2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	10 682,6	108,6
Andijon sh.	3 189,7	110,4
Xonobod sh.	78,7	109,4
<i>tumanlar:</i>		
Oltinko‘l	683,5	107,2
Andijon	879,2	107,5
Baliqchi	902,9	107,9
Bo‘ston	158,2	103,5
Buloqboshi	244,0	107,3
Jalaquduq	248,4	106,1
Izboskan	335,7	112,8
Ulug‘nor	178,3	106,9
Qo‘rg‘ontepa	411,6	110,9
Asaka	961,5	108,3
Marhamat	353,6	106,2
Shahrixon	1 056,2	107,8
Paxtaobod	410,4	107,1
Xo‘jaobod	590,6	108,3

2024-yilning yanvar-iyun oylarida 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan viloyatning Andijon shahri (10,4 %), Xonobod shahri (9,4 %), Izboskan (12,8 %), Qo‘rg‘ontepa (10,9 %), Asaka (8,3 %) va Xo‘jaobod (8,3 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o‘sish sur’atlari qayd etildi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra 9 803,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 107,4 % ga ko‘paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 91 % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o‘sish sur’atiga ega hududlar (foizda)




Yirik korxonalarning eng yuqori o‘sish sur’atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning mos davriga nisbatan 25,3 % ga o‘sdi va 878,9 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 8,2 % ulushiga to‘g‘ri keldi.

**Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
subyektlarining hududlar kesimida ulushi, foizda**



Yirik korxonalar



**Kichik biznes va xususiy
tadbirkorlik**

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ulug'nor (99,0 %), Qo'rg'ontep'a (98,8 %), Shahixon (98,4 %), Xo'jaobod (98,1 %) va Marhamat (97,5 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 8,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahri (18,1 %), Izboskan (12,6 %), Jalaquduq (8,8 %) tumanlarida kuzatildi.

**Andijon viloyati bo‘yicha aholi jon boshiga nisbatan chakana savdo tovar
aylanmasi hajmi va o‘sish sur’atlari**

Hududlar kesimida ma’lumot

	Hajmi, ming so‘m	O‘sish sur’ati, foizda
Andijon viloyati	3 133,3	106,4
Andijon shahar	6 593,0	107,5
Xonobod shahar	1 711,3	107,5
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko‘l	3 550,6	105,7
Andijon	3 057,1	105,1
Baliqchi	4 166,6	105,6
Bo‘ston	2 023,2	101,3
Buloqboshi	1 587,2	105,1
Jalaquduq	1 244,6	104,2
Izboskan	1 309,6	110,6
Ulug‘nor	2 784,5	105,5
Qo‘rg‘ontepa	1 779,6	108,8
Asaka	2 697,1	106,1
Marhamat	1 890,1	104,1
Shahrixon	3 240,9	105,4
Paxtaobod	1 957,8	104,8
Xo‘jaobod	4 897,3	105,9

2024-yilning yanvar-iyun oyi holatiga o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 3,1 ming so‘mni (2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 106,4 %) tashkil etdi.


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (6,6 ming so‘m), Xo‘jaobod (4,9 ming so‘m) va Baliqchi (4,2 ming so‘m) tumanlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi*

Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyun oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 733,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 117,7 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 731,8 mlrd. so'mni (114,7 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1 001,9 mlrd. so'mni tashkil etdi (131,0 %).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati

(2024- yil yanvar-iyun), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari

* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari


**Uyushmagan savdo aylanmasida dehqon va chorva bozorlari savdo
aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari**

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	1 733,7	117,7
Andijon shahar	403,3	117,4
Xonobod shahar	6,9	273,3
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	29,0	104,1
Andijon	40,7	86,2
Baliqchi	93,9	110,5
Bo'ston	18,0	102,7
Buloqboshi	59,1	105,1
Jalaquduq	50,9	105,7
Izboskan	25,7	158,6
Ulug'nor	55,1	102,5
Qo'rg'ontep'a	121,0	176,9
Asaka	205,5	137,3
Marhamat	89,3	124,6
Shahrixon	326,9	114,0
Paxtaobod	133,5	104,8
Xo'jaobod	75,0	105,5

2024-yilning yanvar-iyun oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 731,8 mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 1 001,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi: Dehqon bozori

2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 731,8 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (283,6 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.



**Uyushmagan savdo tovar aylanmasi:
Chorva (parranda) bozorlari, mld. so'm**

2024-yilning yanvar-iyun oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 001,9 mld. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi 845,9 mld. so'm, qo'y va echkilar – 142,5 mld. so'mni, otlar – 8,2 mld. so'mni, parrandalar va quyonlar – 5,2 mld. so'mni tashkil qildi.



UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI

2024-yil 1-iyul holatiga umumiyligi ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalar soni 1 239 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 237 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	190,7	109,5
Andijon shahar	90,7	116,4
Xonobod shahar	1,7	96,9
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko‘l	8,9	97,8
Andijon	14,0	97,7
Baliqchi	2,4	98,5
Bo‘ston	1,0	98,4
Buloqboshi	1,9	100,4
Jalaquduq	2,5	98,8
Izboskan	5,8	97,3
Ulug‘nor	2,8	97,2
Qo‘rg‘ontepa	8,3	96,6
Asaka	8,1	99,2
Marhamat	4,4	96,7
Shahrixon	28,2	123,9
Paxtaobod	6,3	96,8
Xo‘jaobod	3,8	97,5

2024-yilning yanvar-iyun oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 190,7 mlrd. so‘mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 9,5 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 88,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

AVTOTRANSPORT VOSITALARI VA ULARNING EHTIYOT QISMLARI ULGURJI VA CHAKANA SAVDO AYLANMASI

2024-yil 1-iyul holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 2 529,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 125,1 % ga ortdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1 207,3 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 137,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 1 322,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 115,4 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



**AVTOTRANSPORT VOSITALARI VA ULARNING EHTIYOT QISMLARI
ULGURJI VA CHAKANA SAVDO AYLANMASI**



Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
--	---------------------	--

Andijon viloyati	2 529,8	100,0
Andijon shahar	1 784,9	70,6
Xonobod shahar	0,39	0,02

tumanlar :


Oltinko‘l	244,0	9,6
Andijon	66,7	2,6
Baliqchi	11,3	0,4
Bo‘ston	0,43	0,02
Buloqboshi	0,5	0,02
Jalaquduq	1,1	0,0
Izboskan	5,9	0,2
Ulug‘nor	0,42	0,02
Qo‘rg‘ontepa	3,2	0,1
Asaka	222,4	8,8
Marhamat	2,7	0,1
Shahrixon	8,0	0,3
Paxtaobod	0,6	0,0
Xo‘jaobod	177,3	7,0

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (1 784,9 mlrd. so‘m), Asaka (222,4 mlrd. so‘m) va Xo‘jaobod (177,3 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 3 781,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 108,5 % ga o'sdi.

Hududlar bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm



2024-yil 1-iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 649 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 31 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 618 tani tashkil qildi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 2 533,6 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 112,8 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 93,6 % ni tashkil qildi.

**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

	Jami mlrd. so 'm	2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	3 781,1	108,5
Andijon shahar	1 797,2	111,2
Xonobod shahar	43,8	110,4
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	125,8	88,7
Andijon	294,4	89,7
Baliqchi	317,2	114,8
Bo'ston	25,1	92,0
Buloqboshi	62,9	111,2
Jalaquduq	32,6	94,0
Izboskan	161,1	111,8
Ulug'nor	62,6	118,6
Qo'rg'ontepa	111,2	118,8
Asaka	122,2	110,9
Marhamat	41,0	114,4
Shahrixon	424,3	111,0
Paxtaobod	62,8	107,7
Xo'jaobod	96,9	110,3

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar, Xonobod shahri (42,2 m.), Marhamat (3,3 m.) va Ulug'nor (1,4 m.) tumanlarida kuzatildi.

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Chakana savdo – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyat, ya'ni tovarlarni foydalanish sohasidan shaxsiy yoki umumiy iste'mol sohasiga o'tgan vaqt dagi harakatining yakuniy bosqichini ifodalaydi.

Chakana tovar aylanmasi – tovarlarni sotish tarmoqlaridan qat'i nazar, aholiga iste'mol tovarlarini naqd hisob-kitob asosida yoki plastik kartochkalari, kredit kartochkalari, banklarning hisob cheklari orqali (bu ham naqd hisob-kitob asosida sotish kabi hisobga olinadi) sotilgan qiymati.

Umumiy ovqatlanish – yuridik shaxslar tomonidan pazandachilik mahsulotlarini tayyorlashga, sotishga va iste'molini tashkil qilishga ixtisoslashtirilgan faoliyatni amalgalashirish.

Umumovqatlanish aylanmasi – joylarida aholiga iste'mol uchun, shuningdek, turli kontingentdagi aholini ovqatlanishini tashkil qilish uchun tashkilot va yakka tadbirkorlarga o'zi ishlab chiqargan kulinariya mahsulotlarini (taom, kulinariya mahsulotlari va yarimfabrikatlar), shuningdek, kulinariya ishlovisiz sotib olingan tovarlarni (unli, qandolatli va non mahsulotlari) sotishdan tushgan tushumni ifodalaydi.

Tovar zaxiralari – chakana savdo korxonalari balansida turgan va kelgusida sotish uchun mo'ljallangan tovarlar qoldig'i.

Tovar aylanmasining tovar tuzilmasi – umumiy savdoda nisbiy ko'rsatkich – jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og'irlik (ulush) yordamida aks etadigan, umumiy tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlari o'rtasidagi nisbat, ya'ni tovar aylanmasi tarkibi.

Ulgurji savdo – tijorat maqsadlarida yoki o'zining ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlariga foydalanish uchun, xarid qilingan tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli bo'yicha sotish.

Iste'mol tovarlari – yakuniy iste'molga (oilaviy yoki shaxsiy) qaratilgan, bevosita inson ehtiyojini qondiradigan tovarlar va xizmatlar.

Texnik-ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar – ishlab chiqarish iste'moli uchun mo'ljallangan mahsulot: xomashyo, materiallar, yoqilg'i, butlovchi instrumentlar, mashinalar, ehtiyyot qismlar, yarimfabrikatlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – tuzilgan shartnomalar bo'yicha tijorat maqsadlarida (kelajakda qayta ishslash yoki sotish) yoki o'zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun naqd pulsiz hisob-kitob shaklida tovarlar sotishdan tushumni ifodalaydi.

Tovar zaxiralari – tovar muomalasi doirasida bo'lgan tovarlar yoki ulgurji korxonalar balansida turgan va kelgusida sotishga mo'ljallangan tovarlar qoldig'i.

Tovar aylanmasining tovar tuzilishi – tovar aylanmasi tarkibi, umumiy savdoda nisbiy ko'rsatkich – jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og'irlik (ulush) yordamida aks etadigan, umumiy tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlari o'rtasidagi nisbat.